

FIRIBGARLIK JINOYATLARINING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.

Roziqov Shohijahon Dilmurod o'g'li

*(Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Tashkiliy boshqarma Tezkor boshqaruv
markazi.Kuch va vositalarni boshqarish guruhi katta inspektori)*

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tom ma'nodagi demokrartik islohotlarning mazmun mohiyatiga aylangan insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat va jamiyatning bosh maqsadi deb e'tirof etilayotgan bir sharoitda jamiyatda so'nggi paytlarda fuqarolarni aldash yoki ishonchini suistemol qilish yo'li bilan mulki yoxud mulkiy huquqini qo'lga kiritish holatlari ortib bormoqda. Achinarlisi shundaki, shuncha voqealardan keyin ham firibgarlik jinoyati yoxud firibgar va yo tovlamachi qarmog'iga ilinayotgan vatandoshlarizning soni kamayib qolayotgani yo'q.Taraqqiyot yuksalgani sari firibgarlikning yangidan yangi turlari ham qayd etilmoqda. Axbarot texnologiyalari, internet orqali amalga oshirilayotgan firibgarlik ham ko'p uchrayapti.Bu esa har qachongidan ko'ra ham huquqshunos tadqiqotchilar va ushbu soha mutaxassislarining diqqat e'tiborini ko'proq tortmoqda.Demak quyidagi muammolarga e'tibor qaratish lozim:

- Birinchidan, jinoyat sodir etishga moyil shaxslar dastlab o'zining qurboni izlaydi, o'rganadi, sodir etishning ya'ni o'zganing mulkini to'liq taassuruf etgunga qadar xilma-xil foydali usullar, shakllar o'ylab topadi.Demak uning qurboni bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarning toifasini shakllantirish.

- Ikkinchidan, fuqarolarning firibgarlik jinoyatining qurboni bo'lishning oldini olishga qaratilgan manzilli profilaktik usul, shakl, profilaktik chora va tadbirlar turi samarasi past.

- Axbarot texnologiyalari rivojlanayotgan bir davrda turli xil ijtimoiy tarmoqlar, saytlar, dasturlar orqali yangi turdagi firibgarlik holatlari qayd qilinmoqda.

Firibgarlikning o'zi nima, unga qarshi qonunchilikda qanday javobgarlik nazarda tutilgan. Firibgarlik- ushbu jinoyatning obyekti bu o'zganing mulkidir. Predmeti esa o'zganing mulki yoki mulkka bo'lgan huquqidir. Odatda, mulkka bo'lgan huquq, turli xil qonun hujjatlarida mustahkamlangan bo'ladi. Obyektiv tomonidan firibgarlik aldash yoki ishonchni suistemol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiy huquqini qo'lga kiritishdir.Aldash deganida mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan shaxsning o'zi uni ixtoyoriy ravishda o'z xohishi bilan berishi, jabrlanuvchini chalg'itish uchun aybdor shaxs tomonidan har qanday faktni buzib ko'rsatish yoki haqiqatni yashirish yoxud bila turib yolg'on ma'lumotlarni xabar qilish tushuniladi. Ya'ni bunda shaxs o'zi bilmagan holda ixtiyorish ravishda yolg'on ma'lumotlarga ishonib uni aldashning turlicha bo'lgan uni qaqlbaki blanklari, ishonchnoma, muhr, guvohnoma kabi o'ziga zarur bo'lgan yo'llardan foydalanadi. Bunda firibgarlik jinoyatinin subyekti 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs bo'la oladi.

Uning qurboni esa ya'ni jabrlanuvchi shaxs mulkni yoki mulkiy huquqni firibgar o'z ixtiyori bilan topshiradi, lekin aybdor tomonidan sodir etilayotgan voqeani tushunib yetish qobiliyatiga ega bo'lmagan(masalan: yoshi juda kichik, ruhiy jihatidan aqli noraso, algokol yoki narkotik moddalardan kuchli mastlik darajasida bo'lgan yoki uxlab qolgan) mulkinin qo'lga kiritib olsa bu uchun aybdor firibgarlik uchu emas balki o'g'irlik uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi . Demak hech to'liq o'zini firibgarlik jinoyatini qurboni bo'lmayman deya ayta olmasligi mumkin. Ammo ushbu muammolarni yechimi sifatida viktimologiya fani alohida o'rin tutadi. Bu fanning rivojlanishida Kriminologiya fani alohida o'ri tutadi. Viktimologiya kriminologiyaning bir sohasi bo'lib, jinoyat qurbonlari "Jinoyat va jabrlanuvchi" aloqadorligini, jinoyat mexanizmi jabrlanuvchining roli, jinoyat etimologiyasi, viktimlik va viktimizatsiya faktorlari, jinoyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini yengillashtirish yo'llari va shakllarini o'rganadi. Viktimologiya atamasi o'zi etimologik jihatidan ikki so'zning birikmasidan tashkil topgan ya'ni lotincha victima-qurbon (yunon tarixida greklar xudosiga qurbonlik keltiriladigan tirik jon) hamda logos-ta'limot. Ya'ni viktimologiya bu jabrlanuvchilar qurbonlar to'g'risdagi ta'limot. Firibgarlikka oid jinoyatlarda ham jabrlanuvchining shaxsini o'rganish, jabrlanuvchining aniq biror jinoyatning sodir etilishidagi roli, jinoyat qurboniga aylanish jarayonini o'rganish, yani viktimlashuvni. Hozirgi jamiyatda fuqarolarning firibgarlik va boshqa jinoyatlardan jabrlanib qolishini oldini olish maqsadida turli qonun va qonun osti hujjatlar, buyruq va farmoyishlarda foydalanilmoqda. Bunda 2014 yil 14 may kuni qabul qilingan 371-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni alohida e'tirof etiladi. Ushbu qonuning oltinchi bobi "Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi"ga bag'ishlangan bo'lib uning 43, 44-moddalarida viktimologik profilaktikasi tushunchalari, uning oldini olish chora-tadbirlari ularning amalga oshiruvchi subyektlar haqida ta'rif berib o'tilgan. Ammo fuqarolarning jinoyatlardan jabrlanuvchi bo'lib qolishini oldini olish uchun bizga viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini belgilangan bular quyidagilardan iborat:

huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o'tkazish;

aholiga, shu jumladan huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o'rgatish;

huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni aniqlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;

huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tashkil etish;

huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish;

g'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilish;

hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yo'li bilan aholiga huquqiy tarbiya va ta'lim berish;

g'ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish;

profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida jahon Internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish;

huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullari to'g'risida elektron adabiyotlarni tarqatish.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi qonunchilikka muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Ammo so'nggi yillardan OAV va ijtimoiy tarmoqlar rivojlanayotgan bir paytda jinoyatlarning yangicha ko'rinishi turi, shakli paydo bo'lmoqda shu bilan birga firibgarlik jinoyatlari ham fuqarolar orasida turli xil raqamlardan yaqin qarindoshlarining ovozi shaklini o'xshatib bundan tashqari turli xil ilovalar orqali himoyalanganmagan plastic kartalardan pul yechib olish kabi holatlar qulog'imizga ko'p chalinmoqda.

Bu esa yuqorida aytib o'tilgan profilaktika chora-tadbirlarini samarali, yuqori sifat darajada foydalanish lozimligini talab qilmoqda. Bizning fikrimizcha huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar ularning vakolatlarini oshirib, tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi
[//https://www.lex.uz/docs/6445145](https://www.lex.uz/docs/6445145);
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi
[//https://www.lex.uz/docs/111460](https://www.lex.uz/docs/111460);
3. "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ 515-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni [// https://www.lex.uz/docs/4159913](https://www.lex.uz/docs/4159913);
4. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-344-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni [// https://www.lex.uz/docs/2107763](https://www.lex.uz/docs/2107763);
5. "Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"
O'RQ-442-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni [// https://lex.uz/docs/3328284](https://lex.uz/docs/3328284);

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>;